



Iqtisodiyot va moliya vazirligining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning XARITASI

T/r	Funksiyaning korruptsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi	Funksiyani bajarish uchun mas’ul lavozimlar	Funksiyadagi korruptsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Tartibga soluvchi hujjat / Mavjud nazorat tartib taomillari	Korruptsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish uchun lavozimlar (lavozimi, bo‘linmasi)	Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Bataraf etish bo‘yicha chora- tadbirlar muddatlari
1.	Vazirlikning moddiy va texnik ta'minotini amalga oshirish							
Vazirlikka tegishli bino va inshootlar, ularga tegishli hududlarni toza va ozoda saqlash, obodonlashtirish ishlarini olib boradi, shuningdek, ta'mirlash, kapital qurilish, kommunal xizmat ko'rsatish ishlarini tashkillashtiradi, vazirlik mol-mulkining ishlatilishi, saqlanishi va hisobdan chiqarilishining qonuniyligini ta'minlaydi va boshqa tegishli xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadi.								
	O'rta	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ишлар бошқармаси	Vazirlikka tegishli bino va inshootlar, ularga tegishli hududlarni toza va ozoda saqlash, obodonlashtirish ishlarini olib borish, shuningdek, ta'mirlash, kapital qurilish, kommunal xizmat ko'rsatish ishlarini tashkillashtirish, vazirlik mol-mulkini saqlanishini ta'minlash va boshqa xo'jalik ishlari bilan shug'ullanish jarayonida mol-mulkning ishlatilishi bilan bog'liq xavflar mavjud.	Vazirlikka tegishli bino va inshootlar, ularga tegishli hududlarni toza va ozoda saqlash, obodonlashtirish ishlarini olib borish, shuningdek, ta'mirlash, kapital qurilish, kommunal xizmat ko'rsatish ishlarini tashkillashtirish, vazirlik mol-mulkini saqlanishini ta'minlash va boshqa xo'jalik ishlari bilan shug'ullanishda: - davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 1-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida davlat xaridlari jarayonini tashkil etish to'g'risida"gi 198-sonli buyrug'i talablari asosida amalga oshirilishi ta'minlash; - Vazirlik balansidagi mol-mulkining ishlatilishi, saqlanishi va hisobdan chiqarilishida O'zbekiston respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2009-yildagi 31-dekabrdagi "Budjet tashkilotlari va davlat unitar korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugamagan obyektlarini sotish, shuningdek, ularni sotishdan tushgan pul mablag'larini taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 343-sonli qarori, "Asosiy vositalar qiymatini balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" (r/r: 1401, 29.08.2004y.) va Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomaga (r/r: 2169, 22.12.2010y.), O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standartlari (8-sonli BHS) "Ko'chmas mulk, bino va jihozlar"ga (r/r: 3144, 20.03.2019y.) hamda Vazirlikning 2024-yil 8-iyuldagi "Asosiy vositalarni va qiymatliklarni hisobdan chiqarish bo'yicha ichki komissiya tuzish to'g'risida"gi 23-124-sonli buyruq talablariga rioya etilishini ta'minlash; - xodimlarning korruptsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish.	Sana: 09.04.2024 Raqami: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9- apreldagi 23-70- sonli buyrug'i	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ишлар бошқармаси	Past	2025-yil 2-may - 2025-yil 25-dekabr
2.	Vazirlikning xo'jalik faoliyatini tashkil etish va yuritish							

T/r	Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi	Funksiyani bajarish uchun mas'ul lavozimlar	Funksiyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Tartibga soluvchi hujjat / Mavjud nazorat tartib taomillari	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun lavozimlar (lavozimi, bo'linmasi)	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o'rta, yuqori)	Bataraf etish bo'yicha chora-tadbirlar muddatlari
Vazirlik markaziy apparati xodimlarining kanselyariya mollariga bo'lgan ehtiyojini o'rganadi va natijasiga ko'ra o'z vaqtida ajratilishini ta'minlash.								
	O'rta	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ишлар бошқармаси	Vazirlik markaziy apparati xodimlarini kanselyariya mollari bilan ta'minlash jarayonida	Vazirlik markaziy apparati xodimlarini kanselyariya mollari bilan ta'minlash jarayonida: - kanselyariya mollarining sarflanishini tahlil qilish, haqiqatda talab etilgan miqdorda xarid qilish; - kanselyariya mollarini xarid qilishda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya qilinishini ta'minlash; - kanselyariya mollarining maqsadli sarflanishini monitoring qilish; - xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish.	Sana: 09.04.2024 Raqami: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-sonli buyrug'i	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ишлар бошқармаси	Past	2025-yil 2-may - 2025-yil 25-dekabr
3.	Vazirlikning xo'jalik faoliyatini tashkil etish va yuritish							
Vazirlik balansida mavjud bo'lgan xizmat avtomashinalarining texnik ahvolini o'rganadi, avtotransport vositalarini ta'mirlash ishlarini tashkil etadi va ularning tayyorligini ta'minlaydi, avtotransport vositalarini belgilangan miqdorda yonilg'i bilan ta'minlash								
	O'rta	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ишлар бошқармаси	Vazirlik balansida mavjud bo'lgan xizmat avtomashinalarining saqlanishi va avtotransport vositalarini yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash hamda yonilg'i sarflanishini nazorat qilish, avtotransport vositalarini tegishli xodimlarga biriktirish jarayonida	Vazirlik balansida mavjud bo'lgan xizmat avtomashinalarining saqlanishi va avtotransport vositalarini yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash hamda yonilg'i sarflanishini nazorat qilish, avtotransport vositalarini tegishli xodimlarga biriktirishda: - avtotransport vositalarini ta'mirlash ishlarining me'yorlarini tahlil qilib borish; - ta'mirlash ishlarini talab etilgan me'yordan kelib chiqqan holda nuqson dalolatnomasi asosida belgilash; - avtotransport vositalariga yonilg'i-moylash materiallari sarfida belgilangan limitga rioya qilinishini ta'minlash; - xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish.	Sana: 09.04.2024 Raqami: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-sonli buyrug'i	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Ишлар бошқармаси	Past	2025-yil 2-may - 2025-yil 25-dekabr
4.	Budget to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, byudjet hisobining yuritilishi hamda moliyaviy hisobotlar shakllantirilishini o'rganish orqali byudjet intizomini mustahkamlash							
Xarid qilingan tovarlar maqsadga muvofiqligi, to'g'ri kirim qilinishi, ulardan maqsadli va samarali foydalanilishini o'rganadi								

T/r	Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi	Funksiyani bajarish uchun mas’ul lavozimlar	Funksiyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Tartibga soluvchi hujjat / Mavjud nazorat tartib taomillari	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun lavozimlar (lavozimi, bo’linmasi)	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o’rta, yuqori)	Bataraf etish bo’yicha chora-tadbirlar muddatlari
	O'rta	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ БОШҚАРМАСИ	Tovar (ish, xizmat)lar xarid qilinishida O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinganligi yuzasidan tekshirish o'tkazish jarayonida	Tovar (ish, xizmat)lar xarid qilinishida O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinganligi yuzasidan tekshirish o'tkazish jarayonida: - o'tkazilgan audit tadbirlari yuzasidan rahbariyatga tegishli ma'lumotlarni kiritib borish hamda Vazirlikning 2024-yil 27-dekabrda 23-250-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Xavfni boshqarish qo'mitasiga" hisobot berib borish; - davlat xaridlari davlat buyurtmachisining o'z oldida turgan vazifalarni hal etishni ta'minlaydigan haqiqiy talablari va ehtiyojlarini samarali qanoatlantirish uchun davlat xaridlarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi va zarurligi, tovarni (ishni, xizmatni) tanlashni, uning iste'mol xususiyatlari (tavsifi), sifat ko'rsatkichlarining va qiymatining asoslanganligi hisobga olingan holda amalga oshirish hamda affilangan, manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlarga yo'l qo'ymaslik. - xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish.	Sana: 09.04.2024 Raqami: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-aprelda 23-70-sonli buyrug'i	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ БОШҚАРМАСИ	Past	2025-yil 2-may - 2025-yil 25-dekabr
5.	Budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash, byudjet hisobining yuritilishi hamda moliyaviy hisobotlar shakllantirilishini o'rganish orqali byudjet intizomini mustahkamlash							
Xo'jalik shartnomalarini bajarganlik yoki tegishli darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarliklari bajarilishini o'rganadi								
	O'rta	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ БОШҚАРМАСИ	Ichki audit obyektlariga ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning belgilangan maqsadlar uchun sarflanishini o'rganish jarayonida	Ichki audit obyektlariga ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning belgilangan maqsadlar uchun sarflanishini o'rganish jarayonida: - o'tkazilgan audit tadbirlari yuzasidan rahbariyatga tegishli ma'lumotlarni kiritib borish hamda Vazirlikning 2024-yil 27-dekabrda 23-250-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Xavfni boshqarish qo'mitasiga" hisobot berib borish; - o'tkazilgan audit tadbirlari yakuni bilan to'plangan materiallar huquqiy baho berish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuborish. Shuningdek, audit tadbiri yakuni bo'yicha rasmiylashtirilgan hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining "Davlat audit" DMga kiritib borish; - xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish	Sana: 09.04.2024 Raqami: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-aprelda 23-70-sonli buyrug'i	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ БОШҚАРМАСИ	Past	2025-yil 2-may - 2025-yil 25-dekabr
6.	Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlagan holda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, kadrlarga bo'lgan ehtiyojni rejalashtirish, bo'linmalarni munosib mutaxassislar bilan to'ldirish manbalarini belgilash							
Vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali hamda zamonaviy bilimlarga ega yosh kadrlarni tanlash, lavozimga tayinlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib boradi								

T/r	Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi	Funksiyani bajarish uchun mas’ul lavozimlar	Funksiyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Tartibga soluvchi hujjat / Mavjud nazorat tartib taomillari	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun lavozimlar (lavozimi, bo’linmasi)	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o’rta, yuqori)	Bataraf etish bo’yicha chora-tadbirlar muddatlari
	O'rta	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Кадрларни саралаш бошқармаси	Iqtisodiyot va moliya vazirligidagi vakant lavozimlarga tanlov e’lon qilish va o’tkazish jarayonida	1. Vakant ish joylarini to’ldirish O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining https://vacancy.args.uz/ platformasi orqali olib borilishi. 2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko’nikmalarini muntazam oshirib borish.	Sana: 04.09.2024 Raqami: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-sonli buyrug’i	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА БОШҚАРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ	Past	2025-yil 2-may - 2025-yil 25-dekabr
7.	Vazirlikning moliyaviy faoliyatini va iqtisodiy rejalashtirish ishlarini amalga oshirish							
vazirlik uchun ajratilgan mablag’larning ehtiyojini aniqlash, yillik smeta xarajatlarini tuzish hamda ushbu xarajatlarni tegishli tartibda ro’yxatdan o’tkazish, tasdiqlangan smetani maqsadli va belgilangan me’yorlar bo’yicha sarflanishini tashkil etadi								
	O'rta	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - МОЛИЯ-ИҚТИСОД БОШҚАРМАСИ	Vazirlik ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag'larni sarflanishi jarayonida	Vazirlik ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag’larni sarflanishi jarayonida: - kelgusi moliya yili vazirlikning xarajatlar smetalarini belgilangan muddatda tuzilishi va tasdiqlanishini ta’minlash; - tejamkorlik rejimiga amal qilgan holda xarajatlar smetalariga talab etilmaydigan tadbirlar uchun budjetdan ajratiladigan mablag’lar kiritishga yo’l qo’ymaslik; - hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo’l qo’ymaslik; - byudjkt tashkilotlari xodimlarini moddiy rag’batlantirish maxsus jamg’armasining to’g’ri tashkil qilinishini ta’minlash; - xodimlarni korrupsiyaga qarshi bilim va ko’nikmalarini muntazam oshirib borish.	Sana: 09.04.2024 Raqami: Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 9-apreldagi 23-70-sonli buyrug’i	Iqtisodiyot va moliya vazirligi - МОЛИЯ-ИҚТИСОД БОШҚАРМАСИ	Past	2025-yil 2-may - 2025-yil 31-dekabr